

# SESSIYA !



Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri Ismoilov Nuriddinjon Mo‘ydingxonovich, hududdan saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hamda xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, shahar hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari aloqador korxonalar va tashkilotlar, muassasa rahbarlari ishtirok etishdi.

Sessiya kun tartibida Aholi va ijtimoiy soha obyektlarini 2023-yilda “Yashil energiya” resurslari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida hamda Termiz shahrida 2023–2024-yillarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi masalalar ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, ma‘ruzachilar va deputatlar tomonidan, bugungi kunda dunyo miqyosida energiya tejamkorligiga erishish, qayta tiklanuvchi, muqobil energiya manbaalaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilib kelinayotganligi, yurtimizda ham ushbu yo‘nalishda tegishli davlat dasturlari asosida bir qator tizimli ishlar olib borilayotganligi hamda so‘nggi yillarda mamlakatimiz rahbari boshchiligida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida insonlar hayoti farovonligi va turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan

bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar amalga oshirilayotganligi, 2023-2024-yillarda kuz-qish mavsumida aniqlangan muammolarni bartaraf etish hamda Termiz shahar aholisi va ijtimoiy soha obyektlarini uzluksiz va barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash yuzasidan bajarilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Sessiyada kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.